

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 9 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 9 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Ақтамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Matajonov Rahimjon Akramovich*

“VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI ..... 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*

МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ..... 17-22

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Турсунов Бекмухаммад Омонович*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ..... 23-34

*Курпаяниди Константин Иванович*

ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ..... 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*

O‘ZBEKISTONDA SHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ..... 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 52-62

*Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ..... 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*

TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 74-80

*Davronov Istamxo‘ja Olimovich*

МЕНМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ВАНОЛАШ USULLARI ..... 81-86

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*

ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ..... 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*

КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ ..... 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*

МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 105-116

<i>Ergashev Islom Ismoilovich</i> KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	117-127
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ .....	128-136
<i>Эшонкулов Акмал Кудратович</i> ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	137-142
<i>Астанов Шерзод Рустамович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	143-150
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Abdullayev Ibodulla Abdullayevich</i> YOSHLARNI MILLIY G'URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI .....	151-155
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> BAHS-MUNOZARALARDA QO'LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR .....	156-164
<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI .....	165-174
<i>Allayarova Marhabo Mavlonovna</i> UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI .....	175-179
<i>Рахманов Баҳодир</i> СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	180-186
<i>Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich</i> ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA'MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI .....	187-191
<i>Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich</i> JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI .....	192-197
<i>Azimov Ashirali Mehmonboyevich</i> XOTIN-QIZLAR GENDER MA'RIFATINING IJTIMOY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	198-202
<i>Azimov Sherzod</i> PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY .....	203-207
<i>Абдурахмонович Хасан Иброхимович</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	208-216

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*

QUMAN TOPISHMOQLARINING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI ..... 217-223

*Teshabaeva Dilfuza Muminovna, Abduxalilova Gulbaxor Karabaevna*

ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА

ЯСАЛИШИ ..... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*

O'ZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI..... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*

JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI ..... 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*

TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA'NOSI VA LEKSIK SEMANTIKA

GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI ..... 247-253

*Hodir Raхmatullaev*

НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ ..... 254-260

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Мамасобиров Давронбек Эрназарович*

ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o'g'li*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI

INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 271-276

**13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV

KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ..... 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*

TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH

(THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI ..... 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*

TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KO'NIKMALARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI

MASHG'ULOTLAR MISOLIDA) ..... 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE

COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS ..... 296-302

<i>Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich</i> KLAUSTERLI O'ZARO TA'SIR SHAROITIDA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELASHTIRISH MASALALARI .....	303-310
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i> MUSIQA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI .....	311-316
<i>Utkirov Nusrat Kamilovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH .....	317-322
<i>Yulbarsova Xurshida</i> BO'LAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK JIHATLARI .....	323-329
<i>Baychayev Fazliddin Xusenovich</i> BO'LAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH .....	330-335
<i>Muminov Ulmas Ravshanqulovich</i> O'ZBEKISTONDA "MAHALLA INSTITUTI" NING MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI .....	336-341
<i>Tajibayeva Ma'mura Tojiddinovna</i> AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA'LIMOTLARINI O'RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G'OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH .....	342-346
<i>Askarova Zulayxo</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI .....	347-352
<i>Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi</i> EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS .....	352-362
<i>Jumaniyazova Go'zal</i> OLY O'QUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA O'RGATISH METODIKASI .....	363-367
<i>Xusaiova Leyla Yunusova</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ .....	368-373
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i> МАТЕМАТИК КРЕАТИВ ТАВСИФДАГИ MASALALARNING BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI VA ROLI .....	374-379
<i>To'xtasinov Muhammadjon</i> PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING O'RNI .....	380-384



*Eshnazarov Murod Karimovich*

GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH

IMKONIYATLARI .....385-391

10.00.00-Филология фанлари

**Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
[kulievadilshoda98@gmail.com](mailto:kulievadilshoda98@gmail.com)

## **QUMAN TOPISHMOQLARINING O‘ZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek topishmoqchiligi tarixi va uni o‘rgangan folklorshunoslar ishlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, qadimiy “Kodeks Kumanikus” qo‘lyozmasida mavjud jumboqlardan o‘zbek folklorida uchraydigan parallel shakllari muhokamaga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** jumurtka; kuymani; talaymon; uzangi; o‘tov;

**Kuliyeva Dilshoda Alijon kizi**

PhD Student of Namangan State University

## **SOME PARALLELS OF KUMAN RIDDLES IN UZBEK FOLKLORE**

**Abstract.** This article provides information about the history of Uzbek riddles and the works of folklore scholars. Also, some parallel forms of the riddles in "Codex Cumanikus", which is considered an ancient historical manuscript were found in Uzbek folklore, and they were compared to each other.

**Key words:** egg; kuymani; trap; stretch; yurt.

**Кулиева Дилшоода Алижон кизи**

Докторант Намнаганского государственного университета

## **ПАРАЛЛЕЛЬНЫЕ ФОРМЫ КУМАНСКИХ ЗАГАДОК В УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ**

**Аннотация.** В этой статье представлена информация об истории узбекских загадок и трудах фольклористов. Кроме того, в узбекском фольклоре были найдены некоторые параллельные формы загадок из «Кодекс Куманикус» который считается древним историческим манускриптом, и они были сопоставлены друг с другом.

**Ключевые слова:** яйца; куймани; ограбление; стремена; утов

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N27>

**Kirish.** Topishmoq xalq og‘zaki ijodining o‘lmas janrlaridan biri bo‘lib, xalqning turmush tarzi va qadimiy e‘tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda – “insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda” yuzaga kelgan.

Qadimgi ajdodlarimiz tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari tufayli narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, qushlarni o‘z nomlari bilan aytmay, ularni g‘ayritabiiy kuchlar zararidan, ins-u

jinslar va balo-qazolardan omon saqlashni ko'zlab, boshqa so'zlar bilan pardali qilib ayta boshlashlari natijasida, ilk topishmoqlar yuzaga kelgan, buning izlarini hozirgi o'zbek topishmoqlarida ham kuzatish mumkin, aytaylik, otani-nor, momoni-tuya, echkini-Abdukarim, quyonna-uzunquloq, itni-shalpangquloq, ko'zni-darcha, bug'doyni-qizil deb atalashida o'sha sirlilik nishonalari mavjud [16; 2-bet]. Bu kabi o'xshatishlar tilimizda ko'plab topiladi. Ular ajdodlarimiz mifologik qarashlari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, nafaqat topishmoqlar, balki "sirli nutq" kabi boshqa janrlar shakllanishida ham alohida o'ringa egadir.

O'zbek topishmoqchilik tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Garchi XIX asrning o'rtalarigacha topishmoqlar biror to'plam shaklida uchramagan bo'lsada, XIV asrga oid qadimiy turkiy qo'lyozma, asl nusxasi Venetsiyadagi Marchana milliy kutubxonasida DXLIX (№549) katalog raqami bilan ro'yxatga olingan, №1597-xona raqami bilan saqlanuvchi "Kodeks kumanikus" obidasida 47 jumboq mavjud bo'lib, ular adabiyot tarixidagi turkiy topishmoqlarning eng katta qadimiy to'plamidir [7;16-bet].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Yurtimizda xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan topishmoqlarni to'plash va ularni nashrga etish ishlari XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu haqda Zubayda Husainova aytishicha "... ko'p fanlar qatori o'zbek etnografiyasi va folkloriga qiziqish va uni o'rganish jonlana boshlandi. Ba'zi mahalliy gazetalarda topishmoq tekstlari va kichik-kichik maqolalar bosilib chiqqan. Ular bu sohadagi dastlabki qadamlar edi" [13; 6-bet]. Natijada 1875-yilda "Turkiston viloyatining gazetasi"ning birinchi sonida topishmoqlar haqida maqola chop qilindi. Unda topishmoqlar mohiyati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, rus topishmoqlari bilan mahalliy xalqni tanishtirish va mahalliy topishmoqlarni to'plash va nashr etishga undashdan iborat edi. Bu sa'y-harakatlar natijasida bir necha topishmoqlar to'plamlari nashr etilgan. Jumladan, yuqoridagi maqoladan 20 yil o'tib Ostrauimov tomonidan o'zbek topishmoqlari to'plami [11;138-bet] nashr etildi. Unda so'z boshi, 150 topishmoq (o'zbekchasi arab alifbosida) va ularning rus tilidagi tarjimasini berilgan edi. Shundan keyin Vasilevning "Туркестанские ведомости" gazetasida yigirmata o'zbek xalq topishmog'ining rus tiliga tarjimasini bilan bosilib chiqqan [6; 46-bet]. Bu kabi tarjimalar rus xalqini o'zbek topishmoqlari bilan tanishtirishda muhim rol o'ynagan.

Ostrauimovdan keyin Qo'qonda "Jumboq Majmuasi" bosilib chiqdi. Unda 156 topishmoq berilgan bo'lib, ularning ruscha tarjimasini berilmagan. Tuzuvchisi ko'rsatilmagan, kotibi Mirzo Xo'qandiy bo'lgan [13;8-bet]. Bu majmua topishmoqlarga qiziquvchilarni ularni to'plashga va nashr etishga ilhomlantirdi. Shundan keyin folklor janriga oid asarlarni to'plashga qiziqish yanada kuchaydi. 1922-yilda G'ozim Olim Yunusov Samarqand viloyati aholisidan doston, maqollar bilan birgalikda topishmoqlarni ham yozib olgan [13; 9-bet]. Mahalliy olimlar ham topishmoqlarni to'plashga qiziqish bildirishgan. To'ra Zixniy "Jumboqlar" sarlavhali maqolasini "Zarafshon" gazetasida e'lon qilgan. Unda topishmoq terminlari haqida so'z yuritgan [13;10-bet]. Yana bir shunday olimlardan toshkentlik Abdulla Nosirov edi. U o'zbek maqollari bilan birgalikda xalq topishmoqlarini ham to'plashga kirishgan. Ammo u to'plagan 600 jumboqlar nashr qilinmay qolib ketgan va ularning qayerdaligi ma'lum emas. o'zining aytishicha u bu to'plamni xalq maorifi kommissariyatiga topshirgan [13;15-bet].

Bundan tashqari, yosh folklorshunoslar qatorida Xodim Zarifovning yurtimiz bo'ylab tashkil qilingan folkloristik ekspeditsiyalarga boshchilik qilib, folklor namunalari bilan bir qatorda ikki yuzdan ortiq topishmoqlarni to'plaganini tahsinga sazovordir [15;281-bet].

Zubayda Husainova esa aynan topishmoqlar ularning kelib chiqishi ustida ishlar olib borgan va ularni xalq orasidan to'plab, to'plam xolida nashr qildirgan. Shuningdek, topishmoqlar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarimiz qatorida J.Abdullayev, M.Abdurahmonov, M.Saparniyozova va M.Jo'rayevalarning ishlari alohida e'tirofga loyiqdir. J. Abdullayev [5;10-bet] o'zbek xalq topishmoqlarida qo'llangan so'zlar va ularning ma'nolari ustida tadqiqot olib borgan. M.Saparniyozova [12; 15-bet] topishmoqlarning sintaktik xususiyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, M. Jo'rayeva [8; 22-bet] o'zbek topishmoqlarining kelib chiqish tarixi haqida ish olib borgan.

Turkiy topishmoqlarning ilk to'plami qadimiy turkiy qo'lyozma "Kodeks Kumanikus" da uchraydi. Undagi jumboqlar bugungi kungacha yetib kelgan. Quman topishmoqlarining aksariyati o'zbek folklorida konservativ holda saqlanib qolgan. M.Jo'rayeva o'z tadqiqotida "Kodeks kumanikus" qo'lyozmasidagi ayrim jumboqlarning o'zbek folkloridagi parallel shakllarini qiyoslab tahlil qilgan. Tatar adabiyotshunosi X.Mahmutov ham tatar va quman topishmoqlarining o'zaro parallel shakllarini muhokama qilib "Tatar parallels of quman riddles" [10;87-bet] nomli maqolasini nashr qildirgan. Ushbu maqolada o'zbek folklorida uchraydigan quman jumboqlarining parallel shakllari tahlil qilinadi.

**Muhokama va natijalar.** "Kodeks kumanikus" qo'lyozmasidagi quman topishmoqlari turkiy xalqlar folkloridagi eng qadimiy to'plam hisoblanadi. Undagi ko'plab jumboqlar shakl-u shamoyilini o'zgartirmasdan bugungi kunga qadar turkiy xalqlar folklorida saqlanib qolgan. Poetik shakli o'zgarmagan jumboqlar o'zbek folklorida ham talaygina bo'lib, tuxum haqidagi VI topishmoq bunga misoldir. Botir Jafarov unga quyidagicha transkripsiya bergan: "ak kuymani $\eta$  av $\zeta$ u joh (ol – jumurtka)". Jafarovga ko'ra o'zbek tilidagi tabdili: "oq kemanding og'zi yo'q. (bu tuxum)" [7;60-bet]. M.Jo'rayeva ushbu jumboqning o'zbek folkloridagi quyidagi parallel formasini bergan: "Oq quymonning og'zi yo'q" [8;24-bet]. Ushbu topishmoqning metaforik asosi *kujmani $\eta$ -so'zi bo'lib, uni* uni Jafarov "kema", Jo'rayeva keltirgan parallel shaklda "quymon"(buxoroliklar shevasida) — bu atama adabiy tilda "quymoq" tarzida berilgan. Topishmoqni to'la ko'radigan bo'lsak, "oq quymoqning og'zi yo'q", ammo "... yuqoridagi quman jumbog'ida taom ma'nosini bildiruvchi so'z asosga olinmagan." Demak, yuqoridagi so'z quymon bo'lmasligi kerak. Topishmoqdagi *kujmani $\eta$ -so'zi* aslida taomni nazarda tutmaydi. Bunga uni o'rgangan turkiyshunoslar tarjimalaridan ham bilib olishimiz mumkin. Maxmutov aytishicha bu so'z ko'chmanchi turkiylar hayoti uchun muhim bo'lgan "o'tov" bilan bog'liq degan bo'lsa, Inon uni eski boshqird tilida "usti qubbasimon aroba shaklidagi kelin chodiri" ma'nosida qo'llanilgan degan fikrlarni bildirishgan [8;24-bet]. Guner bu so'zni *kuyma-chodir*, Garkaves *kuyma- o'tov* deb tarjima qilishgan. Ushbu topishmoqni o'zbek folklorida yana bir qator variantlarini ham uchratdik. Jumladan, 1) *Oq o'tov, og'zi butov.* 2) *Mening bir o'tovim bor, Oynasi, eshigi yo'q.* 3) *Oy dalada oq o'tov, og'zi burni yo'q o'tov.*[14.70] Xalqimiz turmush tarzida o'troq madaniyatning ustuvorlik qilishi natijasida, mazkur topishmoqning o'xshatish obyekti ham o'zgarganini ko'ramiz. 4) *Oq sandiq, og'zi yo'q sandiq.* 5) *Oq uycha, eshigi ochilguncha.* 6) *Eshigi yo'q, Oq chumboq.* 7) *Birgina uycha, Teshigi ham, Eshigi ham yo'q* [14;71-bet] kabi o'tov so'zi sandiq- uy tarzida shaklini o'zgartirgan.

Qo'lyozmada "Tav üstindä talaşman, tayayı bar beş batman." tülküçigini $\eta$  [= tülküçikni $\eta$ ] tüpegi] [7;60-bet] bu XVII jumboq aynan shu shakl va mazmun saqlangan jumboqlarni biror qardosh xalq folkloridan topilmagan bo'lsada, topishmoq tarkibidagi "talaşman" so'zi o'zbek, qoraqalpoq va qirg'iz jumboqlarida qo'llangani e'tiborga molikdir. Jo'rayevaga ko'ra

“Talashmon” leksemasi o‘zbek xalq topishmog‘ida qo‘llangan “talaymon” so‘zining tarixiy-etimologik o‘zakdoshidir.

O‘zbek folkloridan:

Tog‘da talaymonni ko‘rdim,

Suvda sulaymonni ko‘rdim,

Yumalab yotgan toshni ko‘rdim,

Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim. (Bo‘ri, baliq, toshbaqa, sumalak)[14;175-bet]

Bu bir necha predmetli jumboqda ishlatilgan “talaymon” leksemasini Husainova topishmoq javobi “bo‘ri” bo‘lgani uchun uning harakteriga monand, “tala+y+mon” fe‘lidan kelib chiqqan degan fikrni olg‘a surgan [13;116-bet]. Jo‘rayeva esa bu so‘zni talamoq fe‘liga emas, balki totemizm bilan bog‘liq tasavvurlar asosida izohlangan lug‘aviy birlikdir deb izohlaydi. U quyidagi jumboqni misol keltiradi:

Bog‘da talaymonni ko‘rdim,

Suvda sulaymonni ko‘rdim,

Yo‘lda xo‘ja kalni ko‘rdim,

Qishloqda gadoyni ko‘rdim,

Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim,

Qaynab bitgan toshni ko‘rdim [14;174-bet]

Ko‘rinadiki, bu topishmoqda “talaymon” so‘zi orqali jumboq ma‘nosi yashiringan predmet – kaklik nazarda tutilgan. Agar bu so‘z topishmoq ob‘ektining xarakterli belgisini ifodalash uchun ishlatilgan deyidigan bo‘lsak, u holda “talamoq” tushunchasining kaklik tabiatiga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi ayon bo‘ladi. Aksincha, “talaymon” so‘zining etimologik asosini “iz” magiyasiga aloqador tushunchaga bog‘lasak (“kaklik izi”), topishmoq ma‘nosi reallashadi. Unga ko‘ra odam tasavvurida biror kishi yoki jonivorning oyoq izi magiya qoidasiga ko‘ra uning o‘ziga teng [8;45-bet]. Husainova va Jo‘rayeva fikrlarini qiyoslasak, shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, quman topishmog‘ida talaymon so‘zi Jo‘rayeva aytganidek totemizm bilan bog‘liq, va bu yerda ana shu hayvonni o‘zini nazarda tutmoqda. Demak, javobi tulkinning dumi ekan, tog‘dagi talaymon uning o‘ziga, ya‘ni tulkiga teng. Agar Husainova aytganidek uni bo‘ri bilan bog‘lasak, unda topishmoq javobi o‘ziga nomutanosib bo‘lib qoladi.

“Kodeks kumanikus” dagi *araba šak taš araba šak ete tüšti (ol – tovä)* jumbog‘i Botir Jafarov quyidagicha tabdilini bergan: *Arava cho‘k desam, Tosh arava cho‘kkalaydi. (bu tuya)* [7;60-bet] Ushbu jumboqning o‘zbek folklorida quyidagi shakli uchraydi: Kul, Kulga borib cho‘k. (Tuya) [14;178-bet] o‘zbek topishmog‘ida quman jumbog‘ining aynan *cho‘kkalamoq* fe‘li saqlangan. Demak, tuya haqidagi ushbu jumboq quman jumbog‘i ta‘siri ostida shakllangan.

“Kodeks kumanikus”da qovunning palakda pishib-yetilish xususiyati asosiga qurilgan: *“kokea ulahi kone da femirrir (ol – huun)”*, Jafarov tabdili: *“Ko‘kcha ulog‘cham chilvirda semirar”*. “Bu qovun” [7;60-bet] topishmog‘ining poetik shakli saqlangan, ammo o‘zbek parallel shaklida javobi o‘zgargan. *“Ko‘kkina qo‘zim quvanda turib semiradi”* javob “tarvuz” [8;28-bet].

Xalqimiz turmush tarzida azal-azaldan tuya, eshak kabi jonivorlar qatorida otlar muhim transport vositasi bo‘lib, ularning uzog‘ini yaqin qilgan. Bular ichida otlar nafaqat transport vositasi, balki ko‘pkari kabi sport musobaqalarida ham keng foydalanilgan. Bundan tashqari uning go‘shidan tansiq taomlar tayyorlashgan, uning suti ham shifobaxsh darmondori sifatida iste‘mol qilingan. o‘zbek folklorida ot va uning abzali haqida topishmoqlar talaygina. Qo‘lyozmada, XXIV raqam ostidagi *(olturgani oba jer, baʼkani bagir eanak (ol – uze gi))* [7;61-

bet] uzangi haqidagi topishmoq ham shular jumlasidan. Bu topishmoqning o'zbek folkloridagi parallel shakli mavjud bo'lib, faqatgina misralar o'rni almashgan. Bundan tashqari uning yechimi yana ham kengaygan: *Bosgan yerim boy chuqur, o'tirgan yerim oy chuqur* (Uzangi va egar) [14;120-bet]. Demak, o'zbek parallel shaklda javob nafaqat uzangi, balki egarni ham o'z ichiga oladi. Aslida jumboqqa e'tibor qaratsak, bu yerda ikkita yechim yashiringani ma'lum bo'ladi. Birinchi misra uzangini, ikkinchi misra esa egarni tasvirlaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, quman topishmog'i vaqt chig'irig'idan o'tar ekan, o'zbek folklorida o'zining to'liq yechimini topgan.

XXVII topishmoq "Jazda jawli tokmak jatir. (Ol: kirpi dir)" va XXVIII topishmoq "Jazda jawli kajiš jatir. (Ol: jilandir)" lar bir-biriga juda yaqin. Ammo birgina so'z "tokmak-kajiš" yashirin denotatni o'zgartiradi. "Jazda" so'zi ham turkologlar tomonidan turlicha izohlangan. Bang[1;339-bet] Nemet [2;579-bet] "tekislik" tarzida, Titze [3;56-bet] "dasht" Garkaves [9;89-bet] "o'tloq", Jafarov[7;61-bet] esa "yoz" deb tarjima qilishgan. "Qadimgi turklarda yangi yil uchun foydalanilgan yaz so'zi "Kodeks kumanikus"da berilgan *jazda jani keli jugunadir (ol hamis basidir)* "yozda yangi kelin yig'inadi", *jazda javli tokmak jatir (ol kirpidir)* "yozda yog'li to'qmoq yotar", *jazda javli hays jatir (ol ylan dir)* "yozda yog'li qayish yotar" kabi topishmoqlari tarkibida "ko'klam" ma'nosida emas, balki "yoz fasli" ma'nosini ifodalagan. "Yozni bildiruvchi yay so'zida tovush o'zgarishi yuz berib, yaz ga aylangan. Shunga qaramay, ularning qoldiqlari ayrim so'zlarimizda uchrab turadi. Masalan, bolalar qo'shig'ida kechgan *Läyläk keldi, yaz boldi* jumlasidagi yaz so'zi "ko'klam, bahor"ni bildiradi. Yoki o'zbek tilidagi yaylaw so'zining o'zagi yay (yoz) bilan bog'liq: yay+la+ğ/w – "yaylov, yozni o'tkazadigan, yozlaydigan joy" Shuning uchun ham "Kodeks kumanikus" tarkibidagi topishmoqlarda anlashiladigan jazda so'zi joy ma'nosida "yaylov" yoki "yozlaydigan joy" ma'nosida aglashiladi [7;116-bet]. Barcha variantlar bir-biriga juda yaqin. Lug'at kitoblarimizdan birida bu so'zga "yoz fasli" [4;457-bet] deya tarif berilgan. Bundan kelib chiqadiki Jazda- yozda, yoz faslida degan ma'no anglatadi. Ilon va tipratikan jonzotlari aynan yoz faslida dala-dashtda yuradi. Yuqoridagi tarjimalar ham shundan mantiqiy xulosa qilingani ehtimol. Chunki, barcha variantlar bir-birini to'ldiradi go'yoki. Ammo biz keltirib o'tilgan lug'at kitobimizga asoslanib, ushbu topishmoqlardagi "Jazda" so'zini yozda-yoz faslida deb tarjima qilishni o'rinli deb topdik. o'zbek folkloridagi javobi tipratikan bo'lgan topishmoqlarning barchasida tipratikan yashash sharoitidan kelib chiqqan holda "yer tagi" jumlasini ishlatilgan: 1) *Yer tagida ignachi ota.* 2) *Yer tagida ignachi baqqol.* 3) *Yer tagida Abduraxmon ignachi.* 4) *Yer tagida qubbat igna.* 5) *Yer tagida voy-voy sanchalak.* 6) *Yer tagida mayan qashqa* [14; 61-bet] O'zbek jumboqlaridagi quman jumbog'ini aynan takrorlamasada, ularda quman topishmog'ining ko'plab elementlari saqlanib qolgan.

Quyidagilar esa ilon haqidagi quman topishmog'ining o'zbek folklorida uchragan parallel shakllari : 1) *Yer tagida ho'l gavron.* 2) *Yer tagida ola gavron.* 3) *Yer tagida yog'li qamchi.* 4) *Yer tagida moyli qayish.* 5) *Yer ostida sariq qayish.* 6) *Yer ostida hom qayish.* 7) *Yo'l ustida uzun arg'amchi.* 8) *Ko'prik ostida yog'li hasib.* 9) *Yer tagida sakcha go'sht.* 10) *Yer ustida uzun arg'amchi.* 11) *Yer tagida oltin bosh* [14;65-bet]. Ilon haqidagi o'zbek jumboqlarida quman topishmog'ining elementlari saqlangan holda, yashirin denotat bo'lgan obyektimiz "yer osti"da yashirinishi ko'zga tashlanadi. Tipratikan va ilon haqidagi quman topishmoqlari qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, o'zbek folkloridagi shu mavzudagi jumboqlar ham bir-biriga shu qadar yaqin. Quman jumboqlarida "Jazda" so'zi obyektini yashirsa, o'zbek folkloridagi ikki xil

topishmoqda bu narsa “yer tagi”ga o‘zgargan va bu narsa oddiy tasodif emas, balki, quman topishmog‘ining o‘zbek folkloridagi izidir.

Osmon va yulduzlar haqidagi “XXX” raqamli quman topishmog‘i: “*fel p kesim fanfi o hu. (ol – kok bila julduf dir)*” Jafarov tabdili: *yeri o‘lchovsiz, oxusi sanoqsiz. (bu ko‘k bilan yulduzlar)*[7;61-bet]. Osmondagi yulduzlar soni sanoqsizligiyu va osmon bepoyonligini tasvirlagan ushbu topishmoqning qardosh xalqlarda uchragan parallel shakllari aynan ko‘rinish jihatdan bir xil bo‘lmasada, ammo topishmoq tarkibini tashkil qilgan muhim elementlarni o‘zida saqlaydi. Masalan o‘zbek folkloridagi “*Ko‘tarsa, ko‘tarilmaydi, Sanasa, hisobiga yetib bo‘lmaydi. (Yer va yulduzlar)*” topishmog‘ida yashirin obyektning miqdorini bilish imkonsizligi aytib o‘tilgan, ammo undagi ikkinchi obyekt osmon emas yer. Shuning uchun bu yerda ko‘tarish imkonsizligi jumlasini qo‘shilgan.

“XXXI” raqamli quman topishmog‘i “*burufi bu3 teser (ol – koy bogu)*” tabdili: *Burunsiz muz teshar (bu qo‘y qumalog‘i)* [7;61-bet]. Bu topishmoq o‘zbek folklorida konservativ holda uchramasada, uning ayrim elementlari tomchi haqidagi topishmoqlarda saqlangan: 1) *Oqsoq jo‘ja yer qazir*. 2) *Hakkam cho‘loq yer teshar*. 3) *Liking cho‘loq yer teshar* [14;179-bet]. O‘zbek jumboqlarida ish harakat muz emas, yer ustida amalga oshirilmog‘da. Quman topishmog‘idagi ega burunsizligi aytib o‘tilgan, ammo uning nimaligi aytilmagan. o‘zbek jumbog‘ida ega aniq ko‘rsatilgan. Bundan tashqari quyidagi variantlar ham quman topishmog‘iga o‘xshash. 1) *Langi cho‘loq yer kavlaydi*. 2) *Ilma cho‘loq sur qazir*. 3) *Jingila sichqon yer qazir*. 5) *Tumshuqsiz chumchuq muz teshar*. 6) *Cho‘ntoq tesham yer kovlaydi*. 7) *Cho‘loq otasiga go‘r qaziydi*. a. *Dingding cho‘loq, ding cho‘loq, Otasiga go‘r qazir. o‘tmas pichog‘ yer kovlar*. 8) *o‘z-o‘ziga go‘r qaziydi*. a. *o‘zining go‘rini o‘zi kavlar* [14;186-bet] kabi shakllar barchasi “tomchi” javobiga ega. Ularda quman jumbog‘ining elementlari ko‘rinib turibdi. Vaqt o‘tgani sari insonlar turmush-tarzi, o‘y-hayollari, e‘tiqodlari o‘zgarib boradi. Jumboqlar ham vaqt ta‘siri ostida o‘z funksional tabiatini o‘zgartiradi. Yuqoridagi quman topishmog‘i ham insonlar dunyoqarashi o‘zgarishining ta‘siri o‘larog‘ o‘z javob variantini o‘zgartirgan.

Qo‘lyozmadagi ayrim topishmoqlar shakliy jihatdan saqlanib qolgan bo‘lsada, ammo funksional yo‘naltirilganligi o‘zgargan. Masalan, XXXV raqamli topishmoq “*tuma tudun tutga ga saldi (ol – ufdir)*.” Tabdili: *Ko‘p o‘yladim, tugunga soldim. (Bu hayoldir)*[7;61-bet] tarzida Jafarov tabdil qilgan, ammo Jo‘rayeva topishmoqni o‘z tadqiqot ishida quyidagicha ya‘ni “*tugun tugdim, tutganga soldim*” tarzida tabdil qilgan. Javob “aql”, “fikir” tarzida ifodalangan. Ikki tabdillarni quman topishmog‘i bilan qiyoslaganda M.Jo‘rayeva tabdili muvofiq keladi deb hisoblaymiz. Ushbu topishmoqning o‘zbek folklorida uchraydigan shaklida javob varianti o‘zgargan: 1) *Tepdim, to‘rga tashladim*. Javob “uyqu”, uning yana bir shakli mavjud “*tuydim, tubga tashladim*.” Bu jumboqlar quman topishmog‘ining parallel shakllaridir. Ammo uning funksional tabiati o‘zgargan, ya‘ni, jumboq yechimi “uyqu”ga aylangan.

Kema haqidagi XXXVIII topishmoq “*bu bardi izi joh (ol – kemadir)*” ning Jafarov tabdili quyidagicha: *bu bordi izi yo‘q. (bu kemadir)* [7;62-bet]. O‘zbek folklorida uchraydigan kema haqidagi topishmoq, quman topishmog‘i kabi bir qatorli bo‘lib, yashirin obyektning yurganda izi yo‘qligi izohlanadi. Bu narsa quman topishmog‘ida ham xuddi shu tarzda berilgan. o‘zbek jumbog‘i: *Yursa izi bilinmas. (kema-qayiq)* yana bir kema haqidagi jumbog‘imizda ikkinchi misra qo‘shilgan. Bu yerda iz qoldirmay yuradigan, lekin qoni yo‘q obyekt ekanligi tasvirlangan: *Izlasang izi yoq, So‘ysang qoni yo‘q* [14;187-bet].

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, quman topishmoqlari ilk yozma to'plam shaklida mavjud bo'lgan obidadir. Undagi topishmoqlar nafaqat o'zbek, balki qozoq, qirg'iz, tojik, turkman va barcha turkiy xalqlar folklorida uchraydi. Ko'plab quman topishmoqlarining o'zbek folklorida parallel shakllari mavjud bo'lib, ular konservativ holda saqlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda topishmoqlar funksional tabiatini o'zgartirgan. Bunga esa turli omillar sabab bo'lgan albatta. Shu narsa e'tiborga molikki, quman topishmoqlari barcha turkiy xalqlar jumboqlari rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgani, ana shu xalqlar folkloridagi parallel shakllari orqali ko'rinib turibdi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Bang W. Über die Rätsel des Codex Cumanicus // Sitzungsberichte Preus. Akad. Wiss. Phil.-hist. – Klasse, 1912b. – 334-353 p
2. Németh J. Die Rätsel des Codex Cumanicus // Ztschr. Deutsch.. –Morgenland Gesell, 1913. – 577-608 p
3. Tietse A. Koman riddles and Turkic folklore -Berkeley 1966. 160 p
4. Древнетюркский словарь. – Ленинград, Издательство “Наука”. – 1969. – 676 с.
5. Абдуллаев Ж.Х. Ўзбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари: филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994
6. Васильев А. Сартовские загадки // Туркестанские ведомости. – Ташкент, 1908. – №113.
7. Жафаров,Б. “Кодекс Куманикус”–туркий халқлар ёзма обидаси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. –Тошкент, 2017.
8. Жўраева М. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент,2017
9. Гаркавец, А. Codex Cumanicus: Половецкие молитвы, гимны и загадки XIII-XIV веков. Москва: Русский деревня, 2006
10. Махмутов Х. Татарские параллели куманских загадок // Советская тюркология. – Баку, 1971. – №3. – С.87-96.
11. Н.П.Остраумов. Пословицы и загадки сартов, этнографические материалы, вып. III, 1895, стр. 138-168
12. Сапарниязова М. Ўзбек халқ топишмоқларининг синтактик-семантик хусусиятлари: филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2005
13. Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент: Фан, 1966. 116 с
14. Хусаинова, З. Топишмоқлар / Ўзбек халқ ижоди. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981
15. Ўзбек фолклори. 1 том. 280-285
16. <https://abiturtest.uz/mavzular/topishmoqlar-va-ularning-shakllanish-tarixi-haqida/>



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).